Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · "Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320716

ta'minlashning ustivor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

(yaroqsiz mahsulotning foydalanish mumkin bo'lgan bahosi bo'yicha qiymati, yaroqsiz mahsulotning aybdorlaridan ushlanadigan summalar, mol yetkazib beruvchilar tomonidan yetkazib berilgan sifatsiz TMQdan foydalanish natijasida yuzaga kelgan yaroqsiz mahsulot va boshqalar uchun undiriladigan summalar), shuningdek yaroqsiz mahsulotlardan ko'rilgan yo'qotish sifatida ishlab chiqarish xarajatlariga hisobdan chiqarilgan summalar aks ettiriladi.

Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlarni hisobga oluvchi schyotlar (2600) bo'yicha analitik hisob korxonaning alohida sexlari, mahsulot turlari, xarajat moddalari va yaroqsiz mahsulotlarning vujudga kelish sabablari bo'yicha yuritiladi.

Xulosa: Ishlab chiqarishda yaroqsiz mahsulotlarning hisobi va soliq oqibatlari korxona faoliyatining muhim jihatini tashkil etadi. Yaroqsiz mahsulotlar, nafaqat ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini kamaytiradi, balki moliyaviy oqibatlar ham keltirib chiqaradi. Bunday mahsulotlarning hisobini to'g'ri yuritish, ishlab chiqaruvchilarga ularni o'z vaqtida aniqlash va nazorat qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, yaroqsiz mahsulotlar bilan bog'liq soliq oqibatlarini tushunish, korxonalarning moliyaviy holatini barqarorlashtirish va ulardan maksimal foyda olish uchun zarur. Shuningdek, yaroqsiz mahsulotlarni kamaytirish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, resurslarni samarali ishlatish va atrof-muhitni muhofaza qilish mumkin. Kelajakda, tashkilotlar yaroqsiz mahsulotlar bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun zamonaviy usullar va texnologiyalarni joriy qilishlari muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 30.12.2019. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi https://lex.uz/docs/-4674902
2. «Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllanish tartibi to'g'risida»gi Nizom, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. 1999 yil 5fevral.
3. Moliyaviy hisob. O'quv qo'llanma: A.Abdullayev, E.Mo'ydinov, M.Yusupova va B. Soliyev T. , "Fan va texnologiya", 2005
4. Korxonalarning moliyaviy holati tahlili. E.A.Akramov T: "Moliya" nashriyoti, 2003 yil.
5. To'laxodjaea M.M. «Moliyaviy hisobotni va moliyaviy koeffitsientlarni tahlil qilish». T.: 1996.
https://azkurs.org.

ISHLAB CHIQARISH VA XIZMAT KO'RSATISHNING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Chorshanbayev Umrzoq
Guliston davlat universiteti "Buxgalteriya hisobi va moliya" kafedrasi o'qituvchisi
umurzokchorshanbayev@gmail.com
Eshmuratova Iroda Shuxrat qizi
Guliston davlat universiteti magistri
Mallaxanov Javohir
Guliston davlat universiteti "Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar" fakulteti talabasi i
mallaxanovj@gmail.com

Ishlab chiqarish jarayoni – bu kishilik jamiyatining yashashi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratishga qaratilgan maqsadga muvofiq

Published: 23.12.2024
Cite this article: Chorshanbayev Umrzoq, Eshmuratova Iroda Shuxrat qizi, Mallaxanov Javohir (2024). Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning o'zaro bog'liqligi. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320716
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

faoliyatdir. Ishlab chiqarish moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalariga bo‘linadi. Moddiy ishlab chiqarish sohalariga (sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish va boshqalar) zaruriy moddiy ne‘matlar yaratiladi, xizmat ko‘rsatish sohalarida esa turli xil ma‘naviy ne‘matlar yaratiladi (ta‘lim, sog‘liqni saqlash, sport, turizm va h). Bu sohalar bir-biri bilan uzviy bog‘langan holda rivojlanadi. Masalan, O‘zbekistonda 2023 yilda ishlab chiqarilgan tovarlar qiymati yalpi ichki mahsulotda 1,07 kvadrillion so‘mni tashkil etib, 2022 yilga nisbatan 6 foiz o‘sdi.

Xizmat ko‘rsatish jarayoni ishlab chiqarish jarayonining ajralmas qismi va muhim yo‘nalishidir. Hozirgi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ishchi kuchining 70 foizdan ortig‘i ushbu sohada faoliyat yuritishmoqda. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, AQSh yalpi ichki mahsulotida xizmatlar sohasining ulushi 78 foiz, Yaponiyada 72 foiz, Germaniyada 69 foiz va Rossiyada 60 foizni tashkil qilmoqda.



O‘zbekiston shaharlaridagi xizmatlar sohasining o‘sishi[1].

[1]https//imrs.uz sayti tomonidan Statistika agentligi ma’lumotlariga tayanib tayyorlangan.

Statistika ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki xizmat ko‘rsatish sohasining katta ulushi shaharlarga to‘g‘ri keladi. Bunga misol qilib O‘zbekistondagi 2023-yil ma’lumotlarni 1-rasmda ko‘rsatishimiz mumkin. Xizmat ko‘rsatish sohasi eng tez o‘sib borayotgan shahar bu Toshkent shahri, undan keying o‘rinda Urganch shahri va dastlabki uchtalikning uchinchi o‘rnidan Navoiy shahri o‘rin olgan.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining asosiy vazifalari va yo‘nalishlarini amalga oshirish jarayonida 2022-yilda O‘zbekiston Respublikasi hududlarida qayd etilgan

statistik ma’lumotlarni 2-rasm orqali ko‘rishimiz mumkin.



2022-yilda O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining rivojlanishi[2].

Xizmatlar ham xuddi moddiy tovarlar singari ikkita xususiyatga (naflilik va qiymat) ega bo‘lib, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida o‘ta muhim ahamiyatga egadir. Respublikamizda xizmat ko‘rsatish sohalarida yangi ish o‘rinlarini tashkil etish, ushbu sohada investitsiya, soliq, pul-kredit va ilmiy-texnik siyosatni takomillashtirish hamda yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, bozor xizmatlarining tarmoq tuzilmasida sifatli tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirish ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlash omillari hisoblanadi.

“2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da respublikamizda xizmatlar ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish uchun – “...turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiyalash va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish, yo‘l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga axborotkommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish” - belgilab qo‘yilgan. Yuqoridagi jumlalar isboti sifatida 5–rasmni dalil qilib keltirishimiz mumkin.

[2]Instute of forecasting and macroeconomic research tomonidan tayyorlangan.



3-rasm O‘zbekistonda 2017-2022-yillarda xizmat turlarining rivojlanish dinamikasi

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin (1993 yildan boshlab) milliy hisoblar tizimi joriy qilindi va bunga asosan mamlakat hududida yaratilgan mahsulot yalpi ichki mahsulot (YaIM) deb atalib, shu shaklda hisobga olina boshlandi.

Yalpi ichki mahsulot deb mamlakatda yil davomida mehnat qilayotgan kishilar tomonidan yaratilgan, shu mamlakat taraqqiyoti va aholisi farovonligi yo‘lida foydalanadigan, bevosita iste’molchilarga yetkaziladigan tayyor mahsulotga aytiladi.

Umumiy mahsulot – jalb qilingan barcha ishlab chiqarish omillaridan foydalanish evaziga olingan mahsulotning mutlaq hajmi. O‘rtacha mahsulot – jalb qilingan barcha ishlab chiqarish omillarining bir birligiga to‘g‘ri keladigan mahsulot hajmi:

$$O‘M = M/(L,K).$$

2023-yil 25-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2024 - 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 404-son qarori qabul qilindi.

Xizmat ko‘rsatish sohasiga keladigan bo‘lsak, unga bo‘lgan e’tibor so‘nggi yillarda ortib bormoqda va bir qancha dasturlar ishlab chiqilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev raisligida 2023-yil 18-dekabrdagi hududlarda ishlab chiqarishni yanada kengaytirish va xizmatlarni rivojlantirish masalalari muhokamasi yuzasidan vidoeselektor yig‘ilshi o‘tkazilgan ekanligini keltirishimiz maqsadga muvofiq bo‘lardi. Unda Prezidentimiz sohalarni rivojlantirish maqsadida “Loyiha va eksport tizimini davlatdan tadbirkorlarning o‘zi boshqaradigan tashkilotga olib berayapmiz. Bu tadbirkorlarni eshitish, talab va istaklarni amlaga oshirish uchun kerak”[3]

[3]O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2023-yil 18-dekabrdagi videoselektrda so‘zlagan nutqidan.//www.prezident.uz

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyuldagi «2022 — 2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-165-sonli farmoni.
2. Shodmonov Sh.Sh., G‘afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T., «Iqtisod-Moliya» nashriyoti, 2010.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston — 2030 Strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
4. O‘lmasov A.,Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. -T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2014. -480 b.
Mirziyoev Sh.Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.// Xalq so‘zi, 2017 yil 15 yanvar

O‘ZBEKISTONDA FOYDA SOLIG‘INI HISOBLAB CHIQISH, SOLIQ HISOBOTINI TAYYORLASH VA TAKOMILLASHTIRISH

Murodova Madinabonu
Guliston Davlat Universiteti talabasi
Muratjanova Lobar Muratjan qizi
Guliston Davlat Universiteti talabas

Annotatsiya: Foyda solig‘i – davlatning muhim moliyaviy instrumenti bo‘lib, korxona va tashkilotlarning daromadidan soliqqa tortiladigan foydadan olinadi. Bu soliq turi davlat byudjetini to‘ldirishda asosiy o‘rin tutadi va ijtimoiy soha uchun zarur bo‘lgan resurslarni yaratadi. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi foyda solig‘ining qonunchilik bazasini tashkil qiladi va uning hisob-kitobi, to‘lov tartibi va hisobotni taqdim etish jarayonini tartibga soladi. Foyda solig‘i davlatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim vosita bo‘lib, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning sof foydasidan olinadi. Ushbu soliq turi byudjet tushumlarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo‘lib, soliq solishning adolatli tizimini ta'minlashga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi foyda solig‘ining asosiy huquqiy bazasi hisoblanadi.Bugungi kunda O‘zbekistonda foyda solig‘ini hisoblash va hisobotini taqdim etish tartibi avtomatlashtirilgan tizimlar orqali amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, tizimda ayrim takomillashtirishga muhtoj yo‘nalishlar ham mavjud. So‘nggi yillarda O‘zbekiston soliq tizimini isloh qilish orqali tadbirkorlik muhitini yaxshilash, byudjet tushumlarini oshirish va soliqqa tortish jarayonini shaffoflashtirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Shu bilan birga, foyda solig‘i tizimida hali takomillashtirishni talab etuvchi jihatlar ham mavjud.

Kalit so‘zlar: Foyda solig‘I, Soliq kodeksi, byudjet,sof foyda,soliq bazasi,soliq obyekti.

Kirish: Foyda solig‘i hisoblash uchun korxonaning moliyaviy natijalari asos bo‘ladi. Bu jarayon quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Daromadlarni aniqlash: Korxonaning barcha moliyaviy manbalardan olgan daromadlari hisoblanadi. Bunga mahsulot va xizmatlar sotishdan tushgan tushumlar, moliyaviy daromadlar, investitsiyaviy faoliyatdan tushgan foyda va boshqa daromadlar kiradi.
2. Xarajatlarni chegirish:Soliq kodeksida ko‘rsatilgan ruxsat etilgan xarajatlar daromaddan chegiriladi. Bunga xodimlarning ish haqi, ishlab chiqarish xarajatlari, transport va logistika xarajatlari, kredit foizlari va amortizatsiya xarajatlari kiradi.